



“BOLALARDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL O‘YINLARDAN FOYDALANISH”

Turan International University 1-bosqich magistranti

Abdullayeva Shaxnoza Anvarovna

+998936767939

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularni bilim olishga undashda interfaol o‘yinlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Interfaol o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni faol fikrlashga jalb etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, o‘quv jarayoni, interfaol o‘yin, didaktik vosita, bolalar psixologiyasi, ilg‘or pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования интерактивных игр для повышения интереса учащихся начальных классов к учебной деятельности и стимулирования их к получению знаний. Освещены пути повышения мотивации к обучению, закрепления знаний и активного вовлечения школьников в учебный процесс посредством интерактивных игр.

Ключевые слова: мотивация, учебный процесс, интерактивная игра, дидактическое средство, детская психология, передовая педагогика.

Annotation: This article explores the effective use of interactive games to increase the interest of primary school students in the learning process and to motivate them to acquire knowledge. It highlights methods for enhancing students' motivation, reinforcing their knowledge, and engaging them in active thinking through interactive learning activities.



Keywords: *motivation, learning process, interactive game, didactic tool, child psychology, advanced pedagogy.*

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, ta'limda o'quvchilar maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug'iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya'ni o'quvchining ta'lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog'liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya'ni o'quvchini o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari motivlari sohasini o'rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining korelliyasiyasi



muammolari hali ham yetarli darajada o'rganilmaganligi sezilmoqda. Keyingi yillarda o'zbek pedagog olimlari tomonidan ham o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o'quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo'lsada, ularda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Chunonchi, R.Safarova o'quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o'zlashtirish ehtiyojiga ko'ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o'quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta'kidlagan. K.Zaripov esa o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko'rsatadi. N.Ortiqov o'quvchilar faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo'nalishini belgilaydi. O.Roziqov o'quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan. U o'quv topshiriqlari invariantlarini o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi sifatida asoslagan edi. B.Adizov boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish orqali, A.Hamroyev esa boshlang'ich sinf ona tili ta'limi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini kuzatib, uni an'anaviy ta'lim metodikasidan farqli o'laroq, ijodiy tashkil etish natijasida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatiga rag'bat, layoqati hamda qiziqishi oshirilishi mumkinligini asoslab beradilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter”- o'zaro, ikki taraflama, “act” harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan, eng avvalo, ijtimoiy



subyektlarning suhbat, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoloyatning olib borilishlarini ifodalaydi. Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbarga asoslangan va bu suhbat o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi. Maktab ostonasiga ilk qadam qo‘yib boshlang‘ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti-o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga kura ikki xil tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko‘ra.

2. Amalga oshirish shakliga ko‘ra.

1. Mazmuniga ko‘ra didaktik o‘yinlar quyidagi turlarga bo‘linadi: tinch o‘yinlar; harakatli o‘yinlar; aralash turdagi o‘yinlar.

2. Shakliga ko‘ra didaktik o‘yinlar quyidagi turlarga bo‘linadi: musobaqa o‘yinlari; sahna o‘yinlari.

Interfaol o‘yinlar turlari va ularni darsda qo‘llash:

1. **Rolli o‘yinlari** – bolalar muayyan rollarni ijro etib, dars mavzusi bilan bog‘liq hayotiy vaziyatlarni jonlantiradilar.
2. **Aqliy hujum (brainstorming)** – muammoli vaziyatga yechim topish uchun bolalar jamoaviy ravishda g‘oyalar ilgari suradilar.
3. **“Kim chaqqon?”**, **“Top va ayt”** kabi tezkor savol-javobli o‘yinlar – bilimlarni mustahkamlashda qo‘l keladi.



4. **Multimedia o'yinlari** – interaktiv doska yoki planshetlar yordamida tashkil etiladi, bunda bolalar vizual va eshituv asosida bilimlarni mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, interfaol o'yinlar orqali o'quv jarayoni yanada jonli, qiziqarli va samarali kechadi. Ular nafaqat bolalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi. Ta'lim tizimida bu yondashuvni kengroq tatbiq etish o'quvchilar motivatsiyasini oshirish va sifatli ta'limni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.
2. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: «O'qituvchi», 2008. - 112 bet.
3. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konstepstiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.
4. Abdurahmanova N., Jumayev M., O'rinboeva L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet